



POLAND



POLAND

O'ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH: OILAVIY ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH

Jabbarova Zarnigor Bahriddin qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15623176>

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish hamda ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirdi. Ayollar huquqlarini himoya qilish nafaqat inson huquqlari sohasidagi majburiyat, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayollar huquqlariga alohida e'tibor qaratilayotgani, xususan, zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish tizimini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanmoqda. 2021-yilda oilani himoya qilish bilan bog'liq 391 ta murojaat qayd etilgan bo'lib, bu ayollarning turmush o'rtog'i yoki yaqin qarindoshlari tomonidan tazyiqqa uchraganligini ko'rsatadi. Ushbu tezisda O'zbekistonning ayollar huquqlari sohasidagi yutuqlari, qonunchilik islohotlari, oilaviy zo'ravonlikka qarshi choralar, xalqaro tajriba va kelajakdagi takliflar tahlil qilinadi.

Oilaviy zo'ravonlik bo'yicha 2021-yil statistikasi

2021-yilda O'zbekistonda oilani himoya qilish bilan bog'liq jami 391 ta murojaat

qayd etilgan bo'lib, bu murojaatlar oilaviy zo'ravonlikning turli shakllarini aks ettiradi (Gazeta.uz, 2022). Ushbu murojaatlar quyidagicha tasniflanadi:

228 ta murojaat (58,3%) ayolning turmush o'rtog'i tomonidan tahqirlanishi bilan bog'liq. Bu oilaviy zo'ravonlikning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, jismoniy, psixologik va iqtisodiy tazyiqni o'z ichiga oladi.

91 ta murojaat (23,3%) voyaga yetmaganlarning huquqlari bilan bog'liq.

Bu holatlar bolalarning ta'lim, sog'liqni saqlash va xavfsizlik huquqlarining buzilishini ko'rsatadi.

17 ta murojaat (4,3%) turmush o'rtog'ining ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari tomonidan tahqirlanish bilan bog'liq. Bu oilaviy munosabatlardagi kengaytirilgan zo'ravonlikni aks ettiradi.

17 ta murojaat (4,3%) farzandni qaramog'iga olish nizolari bilan bog'liq bo'lib, ajralish jarayonlarida yuzaga keladi.

7 ta murojaat (1,8%) bolalarning ota-onasining uy-joyiga bo'lgan huquqlari bilan bog'liq.

31 ta murojaat (7,9%) boshqa holatlarni, masalan, iqtisodiy qaramlik yoki



POLAND



POLAND

psixologik bosimni qamrab oladi.

Bu statistika oilaviy zo'rvonlikning jiddiy muammo ekanligini ko'rsatadi. Biroq, ushbu raqamlar faqat rasmiy murojaatlarni aks ettiradi, haqiqiy vaziyat esa yanada murakkab bo'lishi mumkin. Ko'plab ayollar ijtimoiy stigma, huquqiy bilimning yetishmasligi yoki qo'rquv tufayli zo'rvonlik haqida xabar bermaydi¹.

Ayollarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish tizimi

Respublikamizda ayollarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish uchun bir qator mexanizmlar joriy qilingan. Quyida asosiy tizimlar va ularning hozirgi holatitahlil qilinadi

Himoya ordeni tizimi

"Himoya ordeni" zo'rvonlikka uchragan ayollarni tezkor himoya qilish uchun 2019-yilda joriy etildi². Ushbu tizim zo'rvon shaxsga nisbatan qonuniy choralar

qo'llash va jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. 2021-yilda 39 343 nafar ayol himoya ordeni asosida davlat himoyasiga olingan³. 2023-yilningdastlabki 7 oyida esa tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan 21 871 nafar xotin-qizga himoya ordeni berildi. Xotin-qizlarga nisbatan qayd etilgan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining 18 526 tasi yoki 84,7 foizi oilalarda sodir etilgan⁴. Biroq, himoya orderining 30 kunlik muddati uzoq muddatli xavfsizlikni ta'minlash uchun yetarli emas. Muddat tugagach, jabrlanuvchilar qayta zo'rvonlik xavfiga duch kelishi mumkin.

Tizimdagi asosiy kamchiliklar:

1.Himoya orderining qisqa muddati zo'rvonlik xavfini to'liq bartaraf etmaydi.

2/Keyingi jarayonlarda, masalan, jabrlanuvchilarning ijtimoiy reabilitatsiyasi bo'yicha tizimli yordam yetishmaydi.

3.Zo'rvonlik holatlari bo'yicha to'liq statistik ma'lumotlar va monitoring tizimi hali shakllanmagan.

"Ishonch telefoni" va reabilitatsiya markazlari

Zo'rvonlikka uchragan ayollar uchun 1211 qisqa raqamli "ishonch telefoni" tashkil etilgan bo'lib, 2024-yilda "1146" Ishonch raqami operatorlari tomonidan Respublika bo'ylab tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan 19 088 nafar fuqaroga xizmat ko'rsatildi⁵. Ushbu xizmat ayollarga tezkor huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish



POLAND



POLAND

Respublika markazlari bo'yicha 2024 yil may oyi holatiga vaqtincha boshpanalardagi koykalar soni to'g'risidagi malumotga ko'ra jami 258 ta reabilitatsiya markazi faoliyat ko'rsatayotgani qayd etilgan⁶.

Ayollar daftari tizimi

"Ayollar daftari" ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish uchun joriy etildi. u tizim ayollarni ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish va ijtimoiy yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq, moliyaviy resurslarning cheklanganligi tufayli barcha ayollarga yetarli yordam ko'rsatish qiyinlashmoqda.

Qonunchilik islohotlari va davlat siyosati

"Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun 2019-yilda qabul qilingan ushbu qonun zo'ravonlikning huquqiy ta'rifini belgilab, jabrlanuvchilar huquqlarini kafolatlaydi. Qonun jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va psixologik zo'ravonlikka qarshi choralar ko'rishni majburiy qiladi.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'rida"gi qonun 2019-yilda qabul qilingan ushbu qonun gender tengligini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'ldi. Qonun davlat xizmatida, mehnat bozorida va ta'lim sohasida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratishni kafolatlaydi.

Prezident farmonlari

2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (PF-87) qabul qilindi. Bu farmon ayollar bandligini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. Xususan, 2022-yil 1-sentabrdan xususiy sektorda ishlaydigan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to'lash tizimi joriy etildi.

Bu maqsadlar uchun, budjetdan 2022 yilda 200 milliard so'm, 2023 yilda esa 1,7 trillion so'm yo'naltiriladi⁷.

Sud tomonidan himoya tizimi

Kelgusida ayollarning zo'ravonlikdan himoyasi sud organlari tomonidan ta'minlanadi. Bu quyidagi afzalliklarni beradi:

1.Sud qarorlari zo'ravonlikka qarshi choralar qat'iy va uzoq muddatli bo'lishini ta'minlaydi.

2.Himoya muddati bir yilgacha uzaytiriladi, bu ayollarga psixologik, ijtimoiy



va huquqiy yordam olish uchun yetarli vaqt beradi.

3.Sud tizimi zo'ravonlik holatlarini monitoring qilishda samarali mexanizmlar yaratadi

Iqtisodiy mustaqillik

Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi an'analarga ko'ra, uy ishlari va farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish ayolning asosiy vazifasi hisoblanadi. XMT tadqiqotiga ko'ra, O'zbekiston aholisining 80 foizi oilada erkakning ro'zg'or tebratishi, ayolning esa uy yumushlari va bolalar bilan shug'ullanishini afzal ko'radi.

Mamlakat aholisining 93 foizi turmush o'rtog'i ishlamasa ham, ko'pchilik uy yumushlarini ayol bajarishi kerak, deb hisoblaydi. Bunday qarashlarning barchasi jamiyatda ham, mehnat bozorida ham gender tengsizligi mavjudligidan dalolat beradi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ishlaydigan ayollar erkaklarga nisbatan o'rtacha 39 foiz kam maosh oladi. Jahon banki ekspertlarining fikricha, bu, jamiyatda hukm surayotgan qarashlar va O'zbekistonda kasblarning erkaklar va ayollar uchun mo'ljallangan kasblarga ajratilishi bilan bog'liq.

Xalqaro tajriba

Norvegiya tajribasi

Norvegiyada 1978-yilda qabul qilingan "Gender Equality Act" mehnat bozorida va ta'limda gender tenglikni ta'minlaydi⁸. Ushbu qonun ayollar va erkaklar uchun teng ish haqi va imkoniyatlarni kafolatlaydi. Norvegiyada zo'ravonlik qurbonlari uchun boshpana tizimi va psixologik yordam markazlari muvaffaqiyatli ishlaydi.

O'zbekiston ushbu tajribani o'rganib, reabilitatsiya markazlarini kengaytirishi mumkin.

Bangladesh tajribasi

Bangladeshdagi "Domestic Violence (Prevention and Protection) Act" oilaviy zo'ravonlikka qarshi huquqiy choralar va jabrlanuvchilar uchun boshpana tizimini joriy etdi⁹. BRAC tashkiloti orqali ayollar kasb-hunarga o'qitilib, iqtisodiy mustaqillikka erishmoqda. O'zbekiston bu tajribadan foydalanib, "Ayollar daftari" tizimini yanada takomillashtirishi va qishloq ayollarini tadbirkorlikka jalb qilishi mumkin.

Muammo:

Respublikamizda ayollar huquqlari va gender tenglikni ta'minlash, xususan,



POLAND



POLAND

oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash sohasida muhim yutuqlarga erishilgan bo'lsa- da, bir qator muammolar hali ham saqlanib qolmoqda:

Oilaviy zo'ravonlikning yuqori darajasi va yashirin holatlari:

2021-yilda qayd etilgan 391 ta murojaat oilaviy zo'ravonlikning faqat rasmiy qismini aks ettiradi. Ijtimoiy stigma, huquqiy bilimning yetishmasligi va qo'rquv tufayli ko'plab ayollar zo'ravonlik haqida xabar bermaydi, bu esa muammoning haqiqiy ko'lamini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Himoya ordeni tizimining cheklovlari: Himoya orderining 30 kunlik muddati zo'ravonlik xavfini to'liq bartaraf etmaydi. Muddat tugagach, jabrlanuvchilar qayta zo'ravonlikka duch kelishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy reabilitatsiya va monitoring tizimlarining yetishmasligi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi.

Iqtisodiy tengsizlik va an'anaviy qarashlar: Ayollar mehnat bozorida erkaklarga nisbatan o'rtacha 39% kam maosh oladi. Jamiyatdagi an'anaviy qarashlar, ya'ni ayolning asosiy vazifasi uy ishlari va farzand tarbiyasi deb hisoblash, gender tengsizligini kuchaytiradi. Bu ayollarning iqtisodiy mustaqillikka erishishini qiyinlashtiradi.

Reabilitatsiya va yordam xizmatlarining cheklangan imkoniyatlari: "Ishonch telefoni" va reabilitatsiya markazlari mavjud bo'lsa-da, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli barcha jabrlanuvchilarga yetarli yordam ko'rsatish qiyin kechmoqda.

Statistik ma'lumotlarning yetishmasligi: Zo'ravonlik holatlarini to'liq monitoring qilish va tahlil qilish uchun tizimli statistik ma'lumotlar bazasi hali shakllanmagan. Bu muammoning ko'lamini aniqlash va samarali choralar ko'rishni qiyinlashtiradi.

Yechimlar:

Respublikamizda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish va ayollar huquqlari hamda gender tenglikni ta'minlash uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

Himoya ordeni tizimini takomillashtirish:

Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish (masalan, 6 oy yoki 1 yilgacha) va jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun qat'iy monitoring mexanizmlarini joriy etish.

Zo'ravon shaxslarga nisbatan sud qarorlari orqali uzoq muddatli choralar qo'llash va ularning bajarilishini nazorat qilish.

Ijtimoiy reabilitatsiya va yordam xizmatlarini kengaytirish:



Reabilitatsiya markazlari va boshpanalarning sonini ko'paytirish, ularning moliyaviy ta'minotini mustahkamlash. Norvegiya tajribasidan foydalanib, psixologik va huquqiy yordam xizmatlarini rivojlantirish.

Iqtisodiy mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: Bangladeshdagi BRAC tashkiloti tajribasidan foydalanib, "Ayollar daftari" tizimi orqali ayollarni kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka jalb qilish dasturlarini kengaytirish. Mehnat bozorida ayollar uchun teng ish haqi siyosatini joriy etish va gender stereotiplarini bartaraf etish uchun ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Jamoatchilik ongini o'zgartirish: An'anaviy gender stereotiplarini yo'q qilish uchun ommaviy axborot vositalari va ta'lim dasturlari orqali keng ko'lamli ma'rifiy kampaniyalar o'tkazish. Maktab va universitetlarda gender tengligi bo'yicha darslarni joriy etish, bu orqali yosh avlodda tenglik qadriyatlarini shakllantirish.

Statistik ma'lumotlar tizimini rivojlantirish: Zo'ravonlik holatlarini tahlil qilish va monitoring qilish uchun yagona statistik ma'lumotlar bazasini yaratish. Bu muammoning ko'lamini aniqlash va samarali siyosat ishlab chiqishda yordam beradi. Xalqaro tajribaga (masalan, Norvegiyaga) asoslanib, zo'ravonlik holatlari bo'yicha muntazam hisobotlar tizimini joriy etish.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Norvegiya va Bangladesh kabi mamlakatlarning tajribasini o'rganib, oilaviy zo'ravonlikka qarshi qonunchilik va amaliy choralar bo'yicha xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa:

O'zbekiston ayollar huquqlari va gender tenglikni ta'minlash yo'lida muhim qadamlar tashlagan bo'lsa-da, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda tizimli yondashuv va uzoq muddatli strategiyalarni joriy etish zarur. Himoya ordeni tizimini takomillashtirish, reabilitatsiya markazlarini kengaytirish, iqtisodiy mustaqillikni qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik ongini o'zgartirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin. Xalqaro tajribadan foydalanish va ichki resurslarni samarali boshqarish O'zbekistonni gender tenglik sohasida yanada muvaffaqiyatli mamlakatga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ombudsmani. (2023). Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.
2. <https://ombudsman.uz/oz/docs/xotin-qizlar-huquqlarini-taminlash-davlat-siyosatining-ustuvor-yonalishidir>
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni. (2019). Xotin-qizlarni tazyiq va



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

- zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida. <http://lex.uz/docs/-4494709>
4. Gazeta.uz. (2022). Himoya orderlari: Toshkentda eng ko'p, Qashqadaryoda eng kam. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/25/himoya-orderi/>
 5. AOKA. (2023, 4-sentabr). Telegram post. https://t.me/aoka_uz
 6. Ijtimoiy himoya markazi. (2024). 1146 ishonch raqami operatorlarining 2024-yilda ko'rsatgan xizmatlari bo'yicha sarhisob. <https://ihma.uz/uz/news-category/1146-ishonch-raqami-operatorlarining-2024-yilda-korsatgan-xizmatlari-boyicha-sarhisob/>
 7. Ijtimoiy himoya markazi. (2024, may). Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari to'g'risidagi ma'lumot. <https://ihma.uz/wp-content/uploads/2024/05>
 8. Gazeta.uz. (2022). O'zbekistonda ayollar huquqlari: statistika va islohotlar. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/01/women>
 9. Norvegiya qonunchiligi. (2017). Gender Equality Act. <https://lovdata.no/dokument/NLE/lov/2017-06-16-51>
 10. Bangladesh qonunchiligi. (2010). Domestic Violence (Prevention and
 11. Protection) Act. <https://learningpartnership.org/resource/domestic-violence-law-bangladesh-document>